

YANGI KONSTITUTSIYA MILLIY TARAQQIYOTIMIZNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Mamadayupova Vasil Shonazarovna

TDYU, Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, farovon jamiyat barpo etishni orzu qilgan, inson qadri aziz bo'lgan adolatlari davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilgan har qanday xalq davlat va huquq taraqqiyotining mashaqqatli va sharafligi yo'lini bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi, xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Kalit so'zlar: Yangi Konstitutsiya, referendum, strategik maqsad, inson huquqlari, xalq manfaatlari.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi.

So'nggi yillarda xalqimiz yangi ulug'vor marralar sari sobit qadamlar tashlagancha barcha to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tib, mohiyatan bir-birini taqozo etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalardagi izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Bugun yangi O'zbekiston demokratik prinsiplar, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan, bosh maqsadi xalq uchun erkin, obod hamda farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatga aylandi.

Shunday ezgu maqsadlardan biri aholining keng qatlami va saylovchilar xohish-irodasi bo'lmish konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Negaki, davlat va jamiyatda tub o'zgarishlar ro'y berayotgan bir paytda tabiiy ravishda Konstitutsiyaga jiddiy o'zgartishlar kiritish taqozo etiladi. Zero, har qanday demokratik islohotlar chin ma'noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo'lsagina, yanada bardavom bo'ladi, ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishadi.

Prezidentimiz joriy yilning 20 iyunida Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim ekanini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Bu ayni haqiqatdir. Zero, har qanday



Konstitutsiya hayotiy bo‘lishi lozim, ya’ni u mamlakatning ijtimoiy va huquqiy voqeliklariga, xalqning orzu-umidlari va kelajak istiqboliga, xususan, zamon talabiga mos kelishi kerak.

Davlatimiz rahbari yangilanayotgan Konstitutsiyamiz “Xalq – qonunlarning yagona manbai va muallifidir” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi”, degan tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilsagina tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘lishini alohida ta’kidladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta’minalash maqsadida:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

- davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosini o‘z vaqtida ta’minalash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

- yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llaniladi;

- yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo‘llashni rad etish qat’iyan taqilanganadi. Shu o‘rinda aytish joizki, konstitutsiyaviy komissiya o‘z faoliyatini aynan shu ko‘rsatmalarga hamda ochiqlik va oshkoraliq tamoyillariga tayangan holda amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda nafaqat xalqimiz, balki jahon hamjamiyati, xorijiy olimlar va ekspertlar ham yangilanayotgan Konstitutsiyamizning asosiy muallifi va ijodkori tom ma’noda O‘zbekiston xalqi ekanini alohida e’tirof etmoqda.

Aholining talab va istaklarini inobatga olgan holda hamda konstitutsiyaviy qonun loyihasini xalqimiz bilan har tomonlama muhokama qilish, loyihani pishiq-puxta maromiga yetkazish maqsadida umumxalq muhokamasini o‘tkazish muddati ikki marta uzaytirildi. Negaki, har bir fuqaroning qalbidan joy olgan, uning huquq va erkinligini to‘liq kafolatlagan xalqchil Konstitutsiyani yaratish chuqril ilmiy-amaliy tahlilni, munozara, mulohaza va muayyan vaqtini talab qiladi

Deputatlar tomonidan hududlarga chiqilgan holda davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yoshu -keksa ishtirokida qator uchrashuvlar tashkil etilib, konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari, bu boradagi milliy va xalqaro darajadagi anjumanlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlar ham yuqori saviyada tashkil etilmoqda.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ishlab chiqish va uning muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan umumxalq muhokamasi jarayonida “1341” raqamli koll-markaz, fuqarolarning bevosita qabuli orqali, “Meningkonstitutsiyam.uz” platformasi hamda jamoaviy takliflari asosida jami 220 mingdan ziyod taklif kelib tushdi. Bu takliflarning 56 foizi erkaklar, 40 foizi ayollar tomonidan, 4 foizi esa anonim tarzda bildirilgan. Unda xorijdagi vatandoshlar yuborgan takliflar ham inobatga olingan va ilmiy hamjamiyat ishtirokida muhokama qilinib, Konstitutsiyaviy komissiyaga taqdim etilgan. Eng dolzarb takliflar qonun loyihasida o‘z aksini topmoqda.



Umuman, yuqoridagilarni inobatga olib hamda bugungi kunda xalqimiz berayotgan takliflarni, mamlakatimizdagi islohotlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash masalalarini ham har tomonlama o‘rganish zaruriyatidan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi konstitutsiyaviy qonunni yanada takomillashtirish borasida qaror qabul qildi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz>
2. <https://www.gazeta.uz/>
3. Saidov A.X. «Mustaqillik qomusi». T.93.

